SIRDARYO VILOYATI SARDOBA TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

120800, Paxtaobod shaharchasi, Do'stlik ko'chasi,22uy, tel: (67)344-17-77, e-mail: sardoba.t@exat.uz

2022 - yil 4 - aprel 180-9-127-Q/22 Sardoba tuman hokimligi

Sardoba tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-son qaroriga asosan tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash hamda obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Sardoba tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimi birinchi o’rinbosari D.Xusanboyev, tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Z.Turdiyeva)larga:

-fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, hotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

-sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (Z.Turdiyeva) hamda qabristonlarning ma’muriyati:

- xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

-qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Qaror matni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin hamda “Sharafli yo`l” gazetasi bosh muharriri (Sh.Farmonov) ushbu qaror matnini “Sharafli yo`l” gazetasida chop etilishi tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi birinchi o‘rinbosari D.Xusanboyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A. Xidirov**

Sardoba tuman hokimining
2022 yil 4 apreldagi
180-9-127-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Sardoba tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha

TARIFLAR MIQDORI

T\r	Xizmatturi	O’lchov birligi	BHMga nisbatan (foiz xisobida)
1.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar katta o’lchamda)	1 o’ringa	50%
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o’ringa	50%
3.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar kichik o’lchamda)	1 o’ringa	40%
4.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar 3 yoshgacha)	1 o’ringa	bepul
5.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	bepul
6.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o’rin/kunga	bepul

Izoh: Sardoba tumanida qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha tariflar miqdori BHM ortishiga mutanosib ravishda dafn etish xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha ta’riflar miqdori ham ortadi.